

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-iyul holatiga **4 249,1** ming kishini tashkil etib, 2024-yil boshidan **40,6** ming kishiga ya'ni **1,0 %** ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni **1 555,8** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,6 %**), qishloq aholisi soni **2 693,3** ming kishini (**63,4 %**) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2024-yil yanvar-iyun oylarida

- Aholi soni **40,6 ming** kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **50,4 ming** nafarni tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **8,9 ming** nafarni tashkil etdi.
- Nikohlar soni **10,2 ming** nafarni tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **2,3 ming** nafarni tashkil etdi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida

Yil boshida
Doimiy aholi soni
4 208 509 kishi
(2024-yil 1-yanvar holatiga)



50,4 ming
bola

Tug'ilganlar soni



8,9 ming
kishi

O'lganlar soni



7,2 ming
kishi

Ko'chib kelganlar
soni



8,1 ming
kishi

Ko'chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni
4 292 069 kishi
(2024-yilning 1-iyul holatiga)

Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2024-yilning 1-iyul holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Samarqand viloyati	4 249,1	1 555,8	2 693,3
Samarqand sh.	590,5	590,5	-
Kattaqo'rg'on sh.	95,3	95,3	-
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	175,0	67,2	107,8
Bulung'ur	204,4	45,1	159,3
Jomboy	191,7	41,9	149,7
Ishtixon	278,7	74,6	204,1
Kattaqo'rg'on	296,5	55,5	241,0
Qo'shrabot	143,2	13,2	130,0
Narpay	229,1	67,2	161,9
Payariq	276,3	76,9	199,4
Pastdarg'om	387,0	98,8	288,2
Paxtachi	153,3	29,4	123,9
Samarqand	275,7	17,1	258,6
Nurobod	163,8	18,4	145,5
Urgut	565,2	237,2	328,0
Toyloq	223,4	27,5	195,9

¹⁾dastlabki ma'lumot

Samarqand viloyati bo'yicha doimiy aholi soni
(2024-yilning 1-iyul holatiga ming kishi)


	2023-y.	2024-y.	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
Samarqand viloyati	4 158,8	4 249,1	102,2
Samarqand sh.	579,3	590,5	114,2
Kattaqo'rg'on sh.	94,3	95,3	102,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	171,1	175,0	104,2
Bulung'ur	199,5	204,4	104,9
Jomboy	187,1	191,7	104,6
Ishtixon	272,6	278,7	106,7
Kattaqo'rg'on	290,4	296,5	107,1
Qo'shrabot	140,3	143,2	103,4
Narpay	225,0	229,1	105,5
Payariq	269,7	276,3	106,6
Pastdarg'om	378,3	387,0	109,3
Paxtachi	151,0	153,3	103,7
Samarqand	270,0	275,7	106,6
Nurobod	160,6	163,8	103,9
Urgut	551,5	565,2	113,6
Toylbq	218,1	223,4	105,4

Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi			har 1 000 kishiga nisbatan promille	
	2023-y.	2024-y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2023-y.	2024-y. ²⁾
Tug'ilganlar	51 910	50 360	-1 550	25,3	23,9
O'lganlar	9 048	8 905	-143	4,4	4,2
Tabiiy o'sish	42 862	41 455	-1 407	20,9	19,7
Nikohlar	10 334	10 197	-137	5,0	4,8
Ajralishlar	2 384	2 265	-119	1,2	1,1

Tug'ilish darajasi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **50 360** bolani tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**51 910 bola**) nisbatan **1 550** bolaga yoki **3,1 foizga** kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda **23,9 promilleni** tashkil qildi va 2023-yilning shu davrida ham (**25,3 promille**) ni tashkil qildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari
(yanvar-iyun oylarida) (1 000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning ayrim hududlarida qayd etildi. Bu ko'rsatkichning yuqori darajasi Narpay tumanida **20,5** dan, **21,7 promillega** ko'payishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma'lumot
²⁾ dastlabki ma'lumot

Tug‘ilish. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida **50,4** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mos ravishda **1 000** aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti **23,9** promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davrida ham **25,3** promille bo‘lganligi kuzatildi.

Ma‘lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati **22 hafta** va undan ortiq, bolaning bo‘yi **25 sm** va undan ortiq, vazni **500 gramm** va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-iyun oylarida)




O‘lim darajasi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni **8 905** kishini tashkil qildi va 2023-yilning shu davriga (**9 048 kishi**) nisbatan **143** kishiga yoki **1,6** foizga ko‘maydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti **4,2** promilleni tashkil qildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **4,4** promille).

2024-yilning yanvar-iyun oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Bulung'ur tumanida (3,7 dan 4,5 promillega), Kattaqo'rg'on shahrida (4,3 dan 5,0 promillega), Oqdaryo tumanida (3,6 dan 4,2 promillega), Narpay tumanida (3,9 dan 4,3 promillega) hamda Nurobod tumanida (3,7 dan 4,1 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlari tomonidan **10,2** ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **4,8 promilleni** tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-iyun oylari holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlari tomonidan **2,3** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti **1,1 promilleni** tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2024-yilning yanvar-iyun oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2024-yilning yanvar-iyun oylari FHDYo organlarida **10 197** ta nikohlar va **2 265** ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan **4,8 promille** nikoh (2023-yilning tegishli davrida **5,0 promille**) va **1,1 promille** ajralishlar (2023-yilning tegishli davrida **1,2 promille**) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-iyun oylarida, birlik)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2023-y.	2024-y. ²⁾	2023-y.	2024-y. ²⁾
Samarqand viloyati	10 334	10 197	2 384	2 265
Samarqand sh.	1 384	1 265	481	440
Kattaqo'rg'on sh.	240	219	83	71
tumanlar:				
Oqdaryo	440	433	73	120
Bulung'ur	498	476	92	104
Jomboy	460	459	127	79
Ishtixon	648	693	111	133
Kattaqo'rg'on	727	716	150	143
Qo'shrabot	277	276	65	45
Narpay	449	533	128	133
Payariq	723	745	154	159
Pastdarg'om	919	975	228	212
Paxtachi	380	395	116	107
Samarqand	611	623	202	157
Nurobod	351	337	68	49
Urgut	1 658	1 475	180	202
Toyloq	569	577	126	111

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2024-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **7 164** kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa **8 059** kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


	2023-yilning yanvar-iyun oylarida	2024-yilning yanvar-iyun oylarida
Ko'chib kelganlar	5 740	7 164
Ko'chib ketganlar	8 047	8 059
Migratsiya saldosi	-2 307	-895

2024-yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya qoldig'i minus **895** kishiga (2023-yilning shu davrida minus **2 307** kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Urgut (**minus 371**), Paxtachi (**minus 370**) va Kattaqo'rg'on (**minus 155**) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-iyun oylarida

soni, *ming kishi*

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹ Shahar va tumanlar hamda hududlararo ichki migratsiyani qo'shgan holda

² dastlabki ma'lumot



Samarqand shahridagi demografik holat



Samarqand shahrining doimiy aholisi soni 2024-yil 1-iyul holatiga **590,5** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **5,3** ming kishiga yoki **0,9 %** ga o'sgan.

Samarqand shahri aholisining tabiiy harakati (1 000 aholiga nisbatan promille)

2023-yilning yanvar-iyun oylarida	2024-yilning yanvar-iyun oylarida
Tug'ilish	
6,5	6,2

2024-yilning yanvar-iyun oylarida **6,2** ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan **21,1 promilleni** tashkil etdi (2023-yilning mos davrida **22,8 promille** bo'lgan).

FXDYo organlarida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida **1 265** ta nikoh va **440** nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1 000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti **4,3 promilleni** tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,5 promillega** kamaygan (2023-yilning mos davrida **4,8 promille** bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1 000 aholiga nisbatan **1,5 promilleni** tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,2 promillega** kamaydi. 2023-yilning mos davrida **1,7 promille** bo'lgan.

Samarqand shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-iyun holatiga 1 000 aholiga nisbatan promille)

